

QAVM-QARINDOSHLIK NOMLARINING O'RGANILISHI

Axtamova Nigora Baxtiyorovna

BuxDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qavm-qarindoshlik leksik birliklarining yuzaga kelishi, ularning hozirgi kunda og'zaki nutqda, badiiy asarlar tarkibida qo'llanish hamda etimologik jihatdan o'rganilishiga bo'lgan e'tibor batafsil yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *“Devonu lug'otit turk”, “Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari”, qarindoshlik atamalari, nikoh munosabatlari orqali bo'luvchi qarindoshlik atamalari, urug'-aymoq va yaqinlik munosabatlar nomlari.*

Kishilik jamiyati paydo bo'libdiki, insonlar o'zining atrofidagi qavm-qarindoshlarini nomlash ehtiyoji paydo bo'la boshladi. Buning natijasida qon-qarindoshlik bilan bog'liq bo'lgan bir qator leksik birliklar yuzaga kela boshladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda qarindoshlik bilan bog'liq bo'lgan terminlarning asosi ham qadimgi qatlamlarga borib taqaladi deyish mumkin. Jumladan, “Devonu lug'otit turk” asarida ayniqsa qabila va urug' tillariga oid lingvistik ma'lumotlar, urug'larning kelib chiqishi, ijtimoiy ahvoli, nomlanishi bilan birgalikda qarindoshlik nomlari ham izohlangan. O'zbek tilshunosligida dastlab B.O'rinboyev qavm-qarindoshlik bilan bog'liq undov hamda murojaatni anglatuvchi so'zlarning tadqiqi bilan shug'ullangan. (Abdulla Qodiriyning kichik prozaik asarlarida qo'llangan qavm-qarindoshlik terminlari, snoska)

O'zbek olimi I. Ismoilovning “Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari” monografiyasining yaratilganligi tilshunoslik uchun katta yutuqlardan biri bo'ldi. Ushbu monografiyada turkiy tillar-uyg'ur, qozoq, qoraqalpoq, turkman, o'zbek tillaridagi qarindoshlik terminlari qiyosan o'rganilib, ularning ma'no xususiyatlari yetarlicha izohlab berilgan. Tadqiqod uch qismdan iborat bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga olgan: 1) qarindoshlik atamalari (ona, ota, o'g'il, qiz, aka, og'a, ini, opa, singil, qarindosh, buva, amaki, jiyan, nevara);

2) nikoh munosabatlari orqali bo'luvchi qarindoshlik atamalari (er, xotin, kuyov, kelin, yanga, pochcha, boja, ovsin, boldiz, qayin, quda)

3) urug'-aymoq va yaqinlik munosabatlar nomlari (qarindosh bolalar, xolavachcha, amnavachcha, amakivachcha, tog'avachcha).

Shuni ta'kidlash joizki, qavm-qarindoshlik terminlari jonli xalq tilining maxsus leksik qatlamini tashkil qiladi. M.Sh.Saidovanning “Namangan

lahjalarining qarindoshlik terminlarini leksik-semantik tahlil qilish” nomli dissertatsiyasi ham qarindoshlik nomlarining o’rganilishiga muhim rol o’ynaydi. Olima qarindoshlik nomlari ustida ish olib borar ekan, shunday xulosaga keladi: “Qarindoshlik termonlari lug’at fondining ajralmas qismi bo’lib, til leksikasining boyishida muhim rol o’ynaydi”. A. Ishayev esa o’z maqolasida o’zbek tilining 723 ta qarindoshlik nomlarini o’rganib, har bir qarindoshlik atamasi har bir hududning o’ziga xos bo’lgan ko’plab leksik va fonetik variantlariga ega ekanligini izohlagan. Qarindoshlik terminlarini o’rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish dunyo tilshunosligida dastlabki qadamlar qo’yilgan. Jumladan, slavyan, hind-yevropa tillarida bu sohaga dastlabki qadamlar o’tgan asrning o’rtalaridan boshlangan edi. Turkiy tillarda esa bu sohada X.G. Yusupov, S.A. Burnashev va L.A. Pokrovskaya kabi tilshunoslar tomonidan yozilgan maqolalarni misol qilishimiz mumkin. X.G. Yusupov o’z maqolasida boshqird tilidagi qarindoshlik terminlarini o’rgangan. O’zbek tilshunosligida esa I.A. Ismoilovdan tashqari S.M. Mutalibov va Sh. Shoabdurahmonovlar ham ilmiy ishlar olib borishgan. I.A. Ismoilov o’zbek tilidagi qavm-qarindoshlik nomlarini ilk bor keng miqyosda o’rgangan. Monografiyada o’zbek tilida bu soha qisman o’rganilganligi, uyg’ur tilida hech qanday ish qilinmaganligi ta’kidlangan.

O’zbek tilshunosligida bu masala yuzasidan qisman gapiriladi. Lekin qavm-qarindoshlikni anglatuvchi ota, ona, bola, o’g’il, qiz, nabira kabi qon-qarindoshlikni bildiruvchi terminlarga leksikologiya tarixi bilan tekshirilib, misol tariqasida ko’rsatib o’tiladi. O’zbek tili va uning shevalaridagi qavm-qarindoshlik terminlarini tekshirish, jiddiy ilmiy ishlar olib borish kerakligi haqida to’xtalib o’tadi.

Hozirgi kunda qarindoshlik nomlarini og’zaki nutqda, badiiy asarlar tarkibida qo’llanish jihatidan, etimologik jihatdan o’rganilishiga bo’lgan e’tibor ortib bormoqda. Jumladan, M. Qurbonova “o’zbek tilida qarindoshlik nomlari bilan qilinadigan murojaat shakllari” nomli maqolasida o’zbeklar muloqot madaniyatiga xos katta yoshli suhbatdoshlarga hurmat murojaat shakllari, muloqot madaniyatida, asosan, katta yoshli kishilarga “siz” lab murojaat qilinishi va bunday holat begona kishilarga nisbatan ham uchrab turishi misollar bilan izohlab berilgan.

K.Q. Nurullayeva “Xitoy va turkiy tillarda qarindosh urug’chilik atamalarining qiyosiy tahlili” nomli maqolasida xitoy va o’zbek tillaridagi qarindoshlik atamaları haqida qiyosiy ma’lumotlar berilgan. turkiy va Xitoy tilini qiyosiy tahlil qilinganda, bu tillarning tarixi juda qadimga borib taqalishi aytib o’tilgan.

Sh.M. Iskandarova va N.B.Jo'rayevalarning "Majolis un-nafois" asarida qo'llanilgan qarindoshlik nomlari hamda ularning semantic tahlili" nomli maqolalarida esa Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida qo'llanilgan qon-qarindoshlik ma'nosini ifodalovchi shaxs nomlarining semalariga e'tibor qaratilgan. "Majolis un-nafois" asarida qon-qarindoshlikni ifodalovchi leksemalar miqdor jihatdan juda kamligi ta'kidlab o'tilgan va qarindoshlik ma'nosini ifodalovchi leksemalarni bir-biriga qiyoslash orqali ularning ma'nolari izohlangan.

T.Ravshanovanning "Qipchoq lahjasida qavm-qarindoshlik atamalarining qo'llanilishi" nomli maqolasida qipchoq lahjasidagi qarindoshlik atamaları izohlanib, bu lahjadagi so'zlarning ko'pchiligi adabiy tildagi so'zlarga mos kelishi ko'rsatib berilgan.

V.Karimovanning "Ayrim qarindoshlik atamalarining lisoniy xususiyatlari" maqolasida qarindoshlik (yaqinlik ma'nolarini ham) ifodalovchi lug'aviy birliklar tizimidagi atamalarining aksariyati grammatik qurilishi va genetic kelib chiqishi turli tillarda nomushtarak lisoniy xususiyatlarga ega ekanligi izohlar bilan ko'rsatib berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ismoilov I. turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. – Toshkent: Fan,1966.
2. Gaziyeva M.M., Bannobova M.T."turkologiyada qarindoshlik nomlarining o'rganilishi" 2022.
3. Nurullayeva K.Q. "Xitoy va turkiy tillarda qarindosh urug'chilik atamalarining qiyosiy tahlili". 2020
4. Cho'liyev R. "Abdulla qodiriyning kichik prozaik asarlarida qo'llangan qavm-qarindoshlik terminlari", 2023